

## TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY HUNARMANDCHILIK VA AMALIY SAN'ATNING O'RNI

Fayziyeva Gavhar

“Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi

**Annotatsiya:** Turizm bugungi kunda dunyo bo'ylab iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylangan. Turizmning rivojlanishi mamlakatlar uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar, yangi ish o'rinlari va madaniy almashinuvlarni ta'minlaydi. O'zbekiston singari boy madaniy merosga ega mamlakatlarda esa turizmni rivojlantirishda amaliy san'at va milliy hunarmandchilikning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada amaliy san'at va milliy hunarmandchilikning turizm sohasidagi roli, ularning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan qanday hissa qo'shishi haqida batafsil yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** turizm, milliy madaniy meros, milliy hunarmandchilik, amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi, madaniy turizm, an'anaviy kasblar, hunarmandchilik mahsulotlari, iqtisodiy rivojlanish, O'zbekiston turizmi.

**Abstract.** Today, tourism has become one of the most important sectors of the economy worldwide. The development of tourism provides countries with significant economic opportunities, creates new jobs, and promotes cultural exchange. In countries with rich cultural heritage, such as Uzbekistan, applied arts and traditional handicrafts play a particularly important role in the development of tourism. This article provides a detailed overview of the role of applied arts and national handicrafts in the tourism sector and examines their contribution to economic, cultural, and social development.

**Keywords:** tourism, national cultural heritage, traditional handicrafts, applied arts, folk crafts, cultural tourism, traditional occupations, handicraft products, economic development, tourism in Uzbekistan.

**Аннотация.** Туризм в настоящее время стал одной из важнейших отраслей экономики во всем мире. Развитие туризма обеспечивает странам значительные экономические возможности, создание новых рабочих мест и расширение культурного обмена. В странах с богатым культурным наследием, таких как Узбекистан, особое значение в развитии туризма имеют декоративно-прикладное искусство и национальные ремёсла. В данной статье подробно рассматривается роль декоративно-прикладного искусства и национального ремесленничества в сфере туризма, а также их вклад в экономическое, культурное и социальное развитие.

**Ключевые слова:** туризм, национальное культурное наследие, народные ремёсла, декоративно-прикладное искусство, народное творчество, культурный



*туризм, традиционные ремесла, ремесленные изделия, экономическое развитие, туризм Узбекистана.*

Turizmni rivojlantirishda amaliy san'at va milliy hunarmandchilikning o'rni juda katta ahamiyatga ega. Bu ikki soha turizmning ko'pgina yo'nalishlariga bevosita yoki bilvosita hissa qo'shadi va mamlakatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi

Milliy hunarmandchilik, turistlarga o'z mamlakatining asl madaniyatini, tarixini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Shuningdek, amaliy san'at turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Hunarmandchilikning mazmuni va ma'nosini, xalqimizning milliy merosidagi hunarmandchilik sohalari va yo'nalishlarining ta'rifini "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" bo'yicha keltiramiz.

"Hunarmandchilik (hunarmandlik) — milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saqlanib qolgan. Kam rivojlangan mamlakatlar xalq xo'jaligida hozir ham muhim o'rin egallaydi".

"Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillashib bordi. Natijada turli ixtisosliklar: kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, tosh-taroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalarga ajraldi. Hunarmandchilik tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab rivojlangan.

Masalan, paxta va pilla yetishtiriladigan hududlarda to'qimachilik, sifatli xom ashyo mavjud joylarda (masalan, Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko'p bo'lgan hududlarda to'qimachilik va ko'nchilik rivojlangan. Shuningdek, o'rmonlarga boy hududlarda yog'ochsozlik, ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz hamda daryo bo'ylarida esa kemasozlik taraqqiy etgan." [1] Madaniy meros boyliklari va qadriyatlarining milliy hunarmandchilikdagi yo'nalishlari:

1. Milliy duradgorlik maktablari (Xorazm, Urgut, Samarqand, Farg'ona va Buxoro yo'nalishlari).

2. Milliy kulolchilik maktablari (Buxoro, Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Farg'ona yo'nalishlari).

3. Oddiy (guldo'zi) kashtachilik maktablari (Farg'ona, Xorazm, Namangan viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari, Farg'ona vodiysi).

4. Milliy zardo'zi kashtachiligi maktablari (Buxoro, Samarqand, Xorazm, Urgut).



5. Milliy bosh kiyimlari (Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Farg‘ona vodiysi).
6. Milliy to‘n (chopon) kiyimlari (Samarqand, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston).
7. Milliy atlas va milliy beqasam kiyimlari (Marg‘ilon, Farg‘ona vodiysi).
8. Baxmal buyumlar (Samarqand).
9. Mahsido‘zlik va poyafzallar (Namangan, Samarqand).

Milliy meros buyuklari ichida xalqimizning hunarmandchiligi yo‘nalishlari xalqaro turizmni rivojlantirishda eng qiziqarli yo‘nalish bo‘lishini oldindan xulosa qilishimiz mumkin.[2] O‘zbekiston azaldan xalq hunarmandchiligi bilan mashhur bo‘lib kelgan. Hozirgi vaqtda respublikada xalq hunarmandchiligi asosida esdalik buyumlari ishlab chiqaruvchi 500 ga yaqin korxonalar mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol o‘yinchoqlar, zardo‘zi mahsulotlar, gilam, poloslar va milliy kiyimlar hamda boshqa buyumlar ishlab chiqarmoqda. Bu mahsulotlar 500 turdan ziyod nomlanishda bo‘lib, bularning ichida ijodkor xalqimizning ko‘p yillar davomida sobiq sho‘rolar davrida ataylab yo‘q qilinganlarini qayta tiklanayotganlari ham bor. Xalqimizning hunarmandchiligi mahsulotlaridan hozirgi vaqtda turizmda qisman foydalanilmoqda, ya‘ni faqat hunarmandchilik mahsulotlari sotilmoqda. Bu holat ham turizmda yaxshi natijalarni beradi. Milliy hunarmandchilik sohalaridan turizmga foydalanish ma‘lum, puxta g‘oya va reja asosida tashkil qilinishi talab etiladi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, xalqaro turistlarning aksariyat qismi xalqimizning yashash tarzi, milliy madaniyati, milliy san‘ati hamda qadimdan saqlanib kelayotgan milliy hunarmandchiligiga qiziqishadi[3].


Mehmonxonalarimizda xorijiy turistlar uchun xalqimiz milliy merosi mahsulotlari va buyumlarining namunalarini qo‘ymoqdamiz. Bu holat ham mehmonxonalar xodimlarining xalqimizning milliy merosi buyumlariga bo‘lgan qiziqishni sezishi hisoblanadi. Lekin bunday do‘konchalar yoki kichik namunalar ko‘rgazmasini qo‘yish bilangina maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Xorijiy turistlar ko‘proq to‘xtaladigan katta mehmonxonalarimizda xalqimizning milliy merosi namunalaridan, qiziqarli ko‘rinishlaridan rangli tasvirlarda katta-katta qilib mehmonxonalarining kirish zallarida xorijiy tillarda ko‘rsatish lozim. Shuningdek, xalqimizning milliy hunarmandchiligidagi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari, masalan, gilamchilik, milliy liboslar va kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayonlari juda tomoshabop bo‘lib, har qanday xorijiy turistni qiziqtirishi shubhasizdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. II-kitob. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, Toshkent, 2005. – 393 b





2.Raximova, D. (2023). O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishining hozirgi tendensiyalari // Engineering problems and innovations.

3.Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna. (2023). Turizm tarmog'ida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari // Journal Of Economy, Tourism And Service, 2(7), 107–112. Retrieved from <http://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/75>

